

FUQAROLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLERINI TA'MINLASHDA SUD TIZIMINING O`RNI

Sardor Odilov

Namangan viloyati sudining malaka hay'ati kotibi

Annotatsiya: Ushbu tezisda huquqshunoslik sohasida inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishning ahamiyati ko'rib chiqiladi. U ushbu asosiy huquqlarni ta'minlashda huquqiy tizimlarning asosiy rolini ta'kidlaydi va tadqiqot usullari, topilmalar va mavzu bo'yicha munozaralar haqida tushuncha beradi. Xulosa qilib aytganda, maqolada huquqshunoslik sohasida inson huquq va erkinliklarini himoya qilishni kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Inson huquqlari, erkinliklari, huquqshunoslik, huquq tizimlari, himoya.

Inson huquq va erkinliklari adolatli va teng huquqli jamiyatning asosidir. Bu huquqlarning ishonchli himoyasini ta'minlashda huquqni o'rganish va qo'llash bo'lgan huquqshunoslik muhim o'rinni tutadi. Mavjud huquqiy tizimlar inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda ishonchli, adolatli va samarali bo'lishi kerak. Ushbu maqola ushbu muammoning turli jihatlarini ko'rib chiqadi, tadqiqot usullari, natijalari va muhokamalarini o'rganadi, bu bizga muammolar va ularni hal qilishning mumkin bo'lgan yo'llarini yoritishga imkon beradi. O'z-o'zidan ayonki, inson huquqlarini himoya qilish va tushunish pirovard natijada ko'p jihatdan milliy darajadagi rivojlanish va mexanizmlarga bog'liq. Milliy darajadagi qonunlar, siyosat, tartib va mexanizmlar har bir mamlakatda inson huquqlarini amalga oshirishning kalitidir. [1] "Inson huquqlari" atamasi BMT Nizomida yetti marta qayd etilgan bo'lib, inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilishni Tashkilotning asosiy maqsadlari va yetakchi tamoyillaridan biriga aylantiradi. 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida inson huquqlarini xalqaro huquq sohasiga olib kirgan tamoyillar belgilab berilgan. O'shandan beri Tashkilot

huquqiy hujjatlar va joylarda faoliyati orqali inson huquqlarini tinimsiz himoya qilib kelmoqda [2]. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng qo'shilgan dastlabki xalqaro-huquqiy hujjatlardan biri bo'lgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida nazarda tutilgan asosiy tamoyillar o'zining ifodasini topgan.

O'zbekistonda sud hokimiyatini yagona tizim sifatida tubdan takomillashtirish, odil sudlovni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, inson huquq va erkinliklarini to'liq hamda ishonchli himoya qilinishini ta'minlash borasida muhim hujjat bo'ldi. Farmonga muvofiq nomzodlarni tanlash va sudyalik lavozimiga tayinlash tizimini tubdan takomillashtirish, sudyalarning mazkur jarayondagi ishtirokini kengaytirish, yuqori malakali sudyalar korpusini shakllantirish uchun mas'ul bo'lgan organning maqomi hamda vakolatlarini oshirish maqsadida sudyalar hamjamiyatining organi hisoblanadigan va sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashadigan O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashi tashkil etildi. Bundan tashqari 2017 yil 1 iyundan e'tiboran Oliy sud va Oliy xo'jalik sudini birlashtirish yo'li bilan fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ish yuritushi sohasidagi sud hokimiyatining yagona oliv organi - O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tashkil etildi. Davlatimiz rahbarining 2017 yil 30 noyabrdagi "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi[5] Farmoni asosida 2018 yil 4 apreldagi qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjathariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni bilan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga foydalanishni taqiqlovchi butunlay yangi – "Dalillarning maqbul emasligi" haqidagi 951-moddasi kiritildi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar sud-huquq sohasini demokratlashtirish va erkinlashtirishga, sud hokimiyatining fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi roli va ahamiyatini oshirishga zamin yaratdi. Shu bilan birga, mamlakatni rivojlantirishning zamonaviy talablari va strategik ustuvor vazifalari sud-huquq tizimini yanada takomillashtirishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni mazkur sohadagi davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarib, quyidagi uchta asosiy ustuvor yo‘nalishlarni belgilab berdi.

Jumladan, sudlar mustaqilligini ta’minlash maqsadida, Sudyalar oliv kengashi tashkil qilindi. Shuningdek, Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudi birlashtirilib, Oliy sud faoliyati takomillashtirildi. Hududlardagi xo‘jalik sudlari iqtisodiy sudlar sifatida qayta tashkil etildi, 71 ta tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudiga ishlarni birinchi instansiyada ko‘rib chiqish vakolati berildi. Sudya lavozimida faoliyat yuritishning ilk marotaba besh yillik, keyin o‘n yillik muddati va muddatsiz davri belgilandi. Sudlarning o‘z moliyaviy, moddiy-texnik masalalarini mustaqil hal qilish boradagi vakolatlari adliya organlaridan olinib, Oliy sudga o‘tkazildi. Sud tomonidan jinoyat ishini qo‘sishimcha tergovga qaytarish instituti bekor qilindi. Shaxsning jinoyat sodir etishdagi aybdorligi faqat sud muhokamasida o‘z isbotini topgan dalillarga asoslanishi kerakligi qat’iy belgilab qo‘yildi. Qiynoqqa solish, ruhiy, jismoniy bosim o‘tkazish va boshqa zo‘ravonlik holatlari qat’iyan taqiqlandi.

Sudda ishlarni ko‘rib chiqishda inson huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va taraflarning tortishuvchanlik tamoyilini ro‘yobga chiqarish maqsadida jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarda dastlabki eshituv instituti joriy etildi. Sudlar faoliyatining shaffofligi, ochiqligi yo‘lida 10 mingdan ortiq jinoyat ishi sayyor sud muhokamalarida ko‘rib chiqildi. Ehtiyyot chorasi sifatida qamoqda saqlash va dastlabki tergovning eng yuqori muddatlarini kamaytirildi.

Sudyalikka nomzodlarni tanlov asosida ishga qabul qilish mexanizmi joriy etilgani alohida e'tirofga loyiq. Ilk bor sudyalik lavozimiga nomzodlarni tanlash bo'yicha imtihon jarayonlarini onlayn yoritib borish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Shuningdek, sudyalik lavozimiga birinchi marta tayinlanadigan nomzodlarni ko'rib chiqish muqobillik asosida amalga oshiriladigan bo'ldi. Albatta, malakali va yetuk sudyalar korpusini hamda sud apparati xodimlarini tayyorlashning yangi tizimi jamiyatda sud idoralariga bo'lgan ishonchni oshirish,adolat barqarorligi va qonun ustuvorligini ta'minlash, tom ma'noda sudni "Adolat qo'rg'oni"ga aylantirish hamda odil sudlovnинг yuqori darajaga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, investitsiyaviy nizolar va raqobatga oid ishlar faqat iqtisodiy sudlar tomonidan ko'rib chiqiladigan bo'ldi. Prokurorlarning barcha iqtisodiy sud majlislarida ishtirok etish huquqi bekor qilindi. Endi, bundan buyon prokuror faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda yoki prokurorning da'vo arizasi bilan qo'zg'atilgan ishlardagina ishtirok etishi mumkin.

Yana bir e'tiborga molik jihat shundaki, sud ishlarini yuritishda nazorat instansiysi tugatildi. Sud tizimida ortiqcha sud bosqichlarini bekor qilish orqali "Bir sud – bir instansiya" tamoyili, shuningdek, tumanlararo sudlarning qarorlarini viloyat sudlari tomonidan, viloyat sudlarining birinchi instansiya sudi sifatida chiqargan qarorlarini esa O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudlov hay'ati tomonidan apellyatsiya tartibida qayta ko'rib chiqish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Aybiga iqrorlik bo'yicha kelishuv instituti joriy qilindi. U mamlakatda jinoyat, jinoyat-protsessual qonunchiligining tatbiq etilishi, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining himoyasi yuqori pog'onaga ko'tarilishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

References:

1. Legal protection of human rights // URL:
<https://www.coe.int/en/web/compass/legalprotection-of-human-rights>

2. Protect Human Rights // <https://www.un.org/en/our-work/protect-human-rights>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.05.2018 yildagi “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlar dasturi to‘g‘risida” PF-5434-sod Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.02.2017 yildagi PF-4966-sod // URL: <https://lex.uz/docs/-3121087>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.11.2017 yildagi PF-5268-sod // <https://lex.uz/docs/-3432426>
6. AKILBEKOVA, S. (2023). KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ NORMALARI VA KONSTITUTSIYAVIY INSTITUTLARI FAOLIYATI. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(13), 19-21